

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SIDDIQOVA SHAXNOZA AXMEDOVNA

**XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA MUVOFIQ
BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARIDA
TABIIY-ILMIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH
METODIKASINI ISHLAB CHIQISH**

13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Siddiqova Shaxnoza Axmedovna

Xalqaro baholash dasturlariga muvofiq bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarida tabiiy-ilmiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish 3

Сиддикова Шахноза Ахмедовна

Разработка методики формирования естественнонаучной компетенции у будущих учителей биологии в соответствии международным оценочным программам..... 25

Siddikova Shakhnoza Akhmedovna

Development of a method for forming natural science competence in future teachers of biology in accordance with international evaluation programs..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SIDDIQOVA SHAXNOZA AXMEDOVNA

**XALQARO BAHOLASH DASTURLARIGA MUVOFIQ
BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARIDA
TABIY-ILMIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH
METODIKASINI ISHLAB CHIQISH**

13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (biologiya)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped2119 raqam bilan ro'yxatga olingan.


Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (peziome)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.karsu.uz.) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Yaxshiyeva Zuxra Ziyatovna kimyo fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Isakulova Nilufar Janikulovna pedagogika fanlari doktori, professor Eshmuratov Roxat Artikbaevich biologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.20.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024 yil «30» oktyabr kuni soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Universitet majlislar zali. Tel.: (+99861) 223-60-78, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№215-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (+99861) 223-60-78.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «12» oktyabr kuni tarqatildi.
(2024 yil «12» oktyabrdagi №6-raqamli reestr bayonnomasi)



M.A.Jumanov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

M.K.Begjanov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash Ilmiy kotibi, b.f.f.d.,
dotsent

Ya.I.Ametov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda so‘nggi 30 yil ichida ta‘lim sifatini xalqaro qiyosiy tadqiqotlarga, ayniqsa, tabiiy-ilmiy fanlarni o‘rganishga qiziqish ortdi. Zamonaviy ta‘lim o‘quvchilarning bilim va malakalarini baholashning turli shakllarini taklif etadi, bu esa majburiy umumiy ta‘lim olgan o‘quvchilar zamonaviy jamiyatda to‘liq faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega yoki yo‘qligini tushunishga imkon beradi, ya‘ni inson faoliyati, muloqot va ijtimoiy munosabatlarning turli sohalarida keng ko‘lamli muammolarni hal qilish dolzarbligini ko‘rsatadi. Ta‘limni modernizatsiya qilish samaradorligi ilmiy tadqiqot va baholash texnologiyalari monitoringi davomida olingan ma‘lumotlar natijalariga asoslanadi. Dunyoning yetakchi o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan ta‘lim yutuqlari sifatini baholashning eng yangi usullaridan foydalanish ta‘lim sifati monitoringi bo‘yicha jahon standartlari tizimini yaratish imkonini beradi.¹

Dunyo miqyosida o‘quvchilarning ta‘lim yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dasturlarga javob beradigan tabiiy-ilmiy fanlarni o‘rganishda kompetensiyani shakllantirish, o‘quv jarayonini integratsiyalash mexanizmlarini yaratish, erkin pedagogik fikrlashni rivojlantirishning didaktik asoslarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, ularni amaliyotda qo‘llash, pedagogik bilimlarni kasbiy faoliyatda qo‘llashda kompetensiyani oshirish, bilimlarni to‘liq o‘zlashtirish texnologiyasini takomillashtirish, aql va malaka darajasini aniqlash ayni kun zarurati hisoblanadi.

Respublikamizda tabiiy-ilmiy fanlarni o‘rganish bo‘yicha kompetensiyani shakllantirishda ta‘lim sifatini baholash metodikasini joriy etish masalasini hal etish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi”² hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida oliy ta‘lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Oliy o‘quv yurtlarining o‘quv dasturlari mutaxassislarni sifatli tayyorlash sohasida zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqilmoqda, ular bitiruvchilarning kasbiy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini oshirishni ko‘zda tutadi, chunki ta‘lim sifatini baholashning an‘anaviy usullari (bilimlarni sinovdan o‘tkazish va ko‘nikmalar) tobora ko‘proq o‘quvchilardan har tomonlama o‘ylashni, rejalashtirishni, qaror qabul qilishni va ularni asoslashni talab qiladigan usullar bilan almashtirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”,

¹ Yangi O‘zbekiston qurish davrida ta‘lim va fan taraqqiyoti. 2021 <https://Strategy.Uz/Index.Php?News=1387&Lang=Ru>

² 2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasini “Xalq uchun g‘amxo‘rlik va sifatli ta‘lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida <https://president.uz/ru/lists/view/5980>.

2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 10-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasida xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020 yil 12 avgustdagi "kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Talabalarning ta’lim yutuqlarini baholashning xalqaro dasturlariga javob beradigan tabiiy fanlarni o‘rganish bo‘yicha kompetensiyani shakllantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlar mamlakatimiz olimlari I.Shernazarov., A.Rahimov., M.Maxmudova., G.Yusupova., M.G‘ulomova., D.Turdiyeva., F.Abdullayeva., S.Qodirova., K.Baymenova., O.Uzoqova., D.Saidaxmetova va boshqalar tomonidan olib borilgan. Oliy ta’lim tizimida pedagogik malaka va ijodiy fikrlashni rivojlantirish masalalari esa J.Usarov, K.Risqulova, , B.Juraeva, Sh.Sharipov, O.Kuisinov, F. Alimova, U. Inoyatov, N. Muslimovlar, biologiya o‘qitish metodikasini ishlab chiqish, bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini oshirish masalasiga oid tadqiqot ishlari, U.Begimqulova., N.Narziyeva., A.Rajabov., X.To‘raqulov., E.Qurbonov., G.Shaxmurova., J.Tolipova., G.Ergasheva., M.Usmonovalar tomonidan turli darajalarda o‘rganilgan.

MDHda talabalarning olgan bilim va tajribasidan keyingi hayotida foydalanish qobiliyatini baholash, shuningdek, talabalarning kompetensiyasini oshirish dasturiga oid ma’lumotlar A.Xutorskaya., T.Karanova., I.Kroxina, A.Anushkina., G. Marasanov., G. Kovaleva., M. Dobryakova, M. A. Zatsepina, L. Dubitskaya., A. Pentin., D. Sharmina., I. Aleksashina., A. Markova, A. Borisenkov, O. Juk, N. Belousova., I. Markinov., N. Pavlova ishlarida aks ettirilgan.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda kompetensiyaning shakllanish darajasini baholashdan iborat bo‘lgan talabalar yutuqlarini xalqaro tadqiq qilish masalalari Mullis I., Martin M., Ina V., K. Margret, M. Richardson, E. Veldmon, kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan.

Biroq, mamlakatimizda ta’lim yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dasturlarga javob beradigan tabiiy-ilmiy fanlarni o‘rganishda kompetensiyani shakllantirishning turli jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar

biologiya o'qitish metodikasini o'qitish jarayonida talabalarning faolligini oshirishni to'liq aks ettira olmaydi. Shu sababli ham, Xalqaro baholash dasturlariga muvofiq bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tabiiy-ilmiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish borasida tadqiqot ishlarini olib borish maqsadga muvofiq hisoblanib, nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax davlat pedagogika universitetining №-1 "Rivojlanish strategiyasini amalga oshirish sharoitida oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirishning innovatsion mexanizmlarini yaratish va joriy etish muammolari" mavzusidagi 2022-2026 yillar istiqbolli ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kelajakgi biologiya o'qituvchilarida xalqaro baholash dasturlariga muvofiq tabiiy-ilmiy kompetensiyasini shakllantirish va tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish metodikalarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xalqaro baholash dasturlari natijalarini tahlil qilish asosida uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak biologiya o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning uslubiy mazmunini takomillashtirish;

bo'lajak biologiya o'qituvchilarining o'quv va kognitiv faoliyatida tabiiy-ilmiy savodxonligi ko'nikmalarini funktsional rivojlantirish uchun tizimli baholash dasturlari metodologiyasini takomillashtirish;

bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish uchun didaktik mazmunni takomillashtirish mexanizmi va tabiiy-ilmiy kompetensiyasini shakllantirish modelini ishlab chiqish;

"Biologiya o'qitish metodikasi" fanidan bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash va tabiiy-ilmiy kompetensiyasini shakllantirishga asoslangan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida xalqaro baholash dasturlariga muvofiq bo'lajak biologiya o'qituvchilari o'rtasida tabiiy-ilmiy kompetensiyasini shakllantirish metodologiyasini ishlab chiqish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Jizzax, Chirchiq, Namangan davlat pedagogika universitetlarining 407 nafar respondent talabalar jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti Xalqaro baholash dasturlariga muvofiq bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tabiiy-ilmiy kompetensiyasini rivojlantirish shakllari, usullari va vositalari hisonlanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar davomida ilmiy-uslubiy adabiyotlarni, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish usullari, shuningdek pedagogik, psixologik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, so'rovnomalar, suhbatlar, kuzatishlar, topshiriqlar, tabiiy fanlar savodxonligi va ijodkorligini aniqlash usullari, modellashtirish, pedagogik eksperiment, matematik va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

PISA (tabiiy fanlar, ijodiy faoliyat) xalqaro baholash dasturlari natijalarini tahlil qilish asosida uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak biologiya o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning ilmiy-uslubiy ta'minoti ishlab

chiqilgan va mavjud xalqaro baholash tadqiqotlarida savodxonlikni shakllantirishning uslubiy mazmuni takomillashtirilgan;

bo'lajak biologiya o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida tabiiy-ilmiy savodxonligi ko'nikmalarini funktsional rivojlantirish uchun tizimli baholash dasturlari metodologiyasini takomillashtirish vositalari (darslik, darslik va kontekstli vazifalar tizimi) ishlab chiqilgan;

bo'lajak biologiya o'qituvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish uchun didaktik mazmuni takomillashtirish mexanizmi va tabiiy-ilmiy kompetensiyasini shakllantirish modelini ilmiy-amaliy kompetensiya mezonlarining ustuvorligi asosida ishlab chiqilgan;

“Biologiya o'qitish metodikasi” fanidan bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida ijodiy fikrlash ko'nikmalarini qo'llashga yo'naltirilgan PISA topshiriqlarining kontekstlari kiritilgan hamda tabiiy-ilmiy kompetensiyasini shakllantirishga asoslangan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xalqaro baholash dasturlariga muvofiq bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tabiiy fanlarni o'qitish sohasidagi tabiiy-ilmiy kompetensiyasini shakllantirish mazmuni aniqlashtirilgan;

PISA kontekstli topshiriqlari asosida talabalarning tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini oshirish va ta'lim samaradorligini oshirishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqot natijalari xalqaro baholash dasturlariga muvofiq bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tabiiy-ilmiy kompetensiyasini shakllantirishga asoslangan ta'lim dasturlarini yaratish uchun ishlatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan ilmiy yondashuvga asoslanib nazariy ma'lumotlar aniq manbalardan olinganligi, tadqiqot vazifalariga mos, o'zaro bir-birini to'ldiradigan adekvat tarzda innovatsion texnologiya va metodlar qo'llangani, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK tavsiya etgan jurnallar hamda xorijiy nashrlarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan o'quv qo'llanmalar, taqdim etilgan tahlillar va eksperimental tekshiruvlarning samaradorlik darajasi matematik va statistik usullar yordamida aniqlanganligi, xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarning tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish bilan bog'liq ta'lim mazmunining hozirgi holati tahlil qilinganligi va xalqaro baholash dasturlariga muvofiq kelajakdagi biologiya o'qituvchilarining tabiiy-ilmiy kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot davomida “Tabiatshunoslik”, “Botanika”, “Biologiya” darsliklarini yaratishda ilgari surilgan g'oyalar va amaliy tavsiyalarga, haqiqiy hayotiy vaziyatlarga asoslangan bo'lishi kerak bo'lgan tabiiy fanlar bo'yicha darslardagi va darsdan tashqari mashg'ulotlarga asoslanganligi, ko'nikmalarni tekshirishga qaratilgan maxsus

vazifalarning ishlab chiqilganligi, fan o'qituvchilari tomonidan matematika, adabiyot va tabiiy fanlar darslarida talabalarni olimpiadalarga tayyorlashda va PISA dasturi bo'yicha tadqiqotda ishtirok etish samaradorligi aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xalqaro baholash dasturlariga muvofiq bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tabiiy-ilmiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

PISA (tabiiy fanlar, ijodiy faoliyat) xalqaro baholash dasturlari natijalarini tahlil qilish asosida uzluksiz ta'lim tizimida bo'lajak biologiya o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning ilmiy-uslubiy ta'minoti ishlab chiqildi va mavjud xalqaro baholash tadqiqotlarida savodxonlikni shakllantirishning uslubiy mazmuni "Biologiyani o'qitishda PISA tizimining ilmiy va uslubiy asoslari (biologiya metodologiyasini o'qitish misolida)" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 27-martdagi 11-05-1374/04-son dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak biologiya o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlashning ilmiy-uslubiy ta'minoti mazmunan takomillashtirilgan;

bo'lajak biologiya o'qituvchilarining o'quv va kognitiv faoliyatida tabiiy-ilmiy savodxonligi ko'nikmalarini funktsional rivojlantirish uchun tizimli baholash dasturlari metodologiyasini takomillashtirish vositalari (darslik, darslik va kontekstli vazifalar tizimi) "Biologiyani o'qitish metodikasi bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 27-martdagi 11-05-1374/04-son dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak biologiya o'qituvchilarining o'quv va kognitiv faoliyati jarayonida tabiiy-ilmiy savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyati ta'minlangan;

maktab o'quvchilari tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirishning didaktik mazmunini takomillashtirish mexanizmi integral yondashuvga muvofiq PISA kontekstlari va elektron o'quv qo'llanmalari to'plami va 5-9-sinf o'quvchilarining tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini aniqlash bo'yicha topshiriqlar "Biologiyani o'qitishda PISA tizimining ilmiy va uslubiy asoslari (biologiya metodologiyasini o'qitish misolida)" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 27-martdagi 11-05-1374/04-son dalolatnomasi). Natijada, maktab o'quvchilarining tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini aniqlashning uslubiy ta'minoti takomillashtirilgan;

bo'lajak biologiya o'qituvchilarining ilmiy va amaliy kompetensiyasi mezonlariga ustivorlik berish asosida tabiiy-ilmiy kompetensiyasini shakllantirish modeli, "Biologiya o'qitish metodikasi" fanidan bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida ijodiy fikrlash ko'nikmalarini qo'llashga yo'naltirilgan PISA topshiriqlarining kontekstlari hamda tabiiy-ilmiy kompetensiyasini shakllantirishga asoslangan takliflar va tavsiyalar "Biologiyani o'qitish metodikasi bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 27-martdagi 11-05-1374/04-son dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak biologiya

o'qituvchilarining tabiiy-ilmiy kompetensiyasini takomillashtirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 2 ta o'quv qo'llanma, 1 ta elektron o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 126 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Xalqaro baholash dasturlariga muvofiq tabiiy fanlarni o'rganishda kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari" deb nomlangan birinchi bobida tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish va kompetensiyaviy yondashuvni ta'lim jarayoniga joriy etishning asosiy jihatlari tahlil qilingan. Tabiiy fanlar kompetensiyasi biologiya, kimyo va fizika sohalarida bilimlarni o'z ichiga oladi, shuningdek, haqiqiy muammolarni hal etish uchun ularning amaliy qo'llanish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Bu kompetensiya o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun ham, jamiyatning umumiy taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, tabiiy fanlar kompetensiyasini shakllantirish, murakkab muammolarni hal eta oladigan va ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishga hissa qo'shadigan tanqidiy fikrlovchi fuqarolarni tarbiyalashda yordam beradi. Shu sababli, barcha ta'lim bosqichlarida tabiiy fanlar savodxonligiga e'tibor berish zarur.

Tabiiy-ilmiy kompetensiyasini shakllantirish, bilimlarni o'zlashtirish va ularni noan'anaviy muammolarni hal etish uchun amaliy qo'llash asosida amalga oshiriladi. Ushbu kompetensiyaning murakkab tuzilmasi motivatsion-qiymat, kognitiv, prakseologik va shaxsiy-harakat komponentlarini o'z ichiga oladi. Uning rivojlanishi amaliy yo'naltirilgan yondashuvni talab qiladi, bu esa ilmiy asoslar orqali va ta'lim jarayoniga joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy olimlar soha (tarmoq) va umumiy tabiiy fanlar kompetensiyasini ajratadilar, bu esa nafaqat professional bilim va ko'nikmalarni, balki shaxsiy sifatlarni ham o'z ichiga oladi. Kompetensiya, tabiiy hodisalar va obyektlar haqida asoslangan fikrlarni shakllantirish qobiliyatida namoyon bo'ladi, bu esa o'quvchilarning faol amaliy faoliyati bilan bog'liqdir. O'qituvchilar, o'quvchilarning tabiiy-ilmiy kompetensiyasini rivojlantirishlari uchun mustaqil ishlashlari uchun shart-sharoitlarni yaratishlari kerak.

Zamonaviy ta'lim maqsadlari, bitiruvchilarni hayotga muvaffaqiyatli moslashishga va amaliy muammolarni hal etishga tayyorlashni talab qiladi. Kompetensiyali yondashuv professional va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga e'tibor qaratadi, bu esa o'zgaruvchan sharoitlarga moslashgan mutaxassislarni tayyorlashda yordam beradi. Oliy ta'lim muassasalarida tabiiy fanlar kompetensiyali yondashuvni joriy etish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bilan bog'liq bo'lib, bu zamon talablariga tezda javob berish qobiliyatini rivojlantiradigan sifatli ta'lim sharoitlarini yaratadi. Jak Delor fikriga ko'ra, zamonaviy ta'lim uchun zarur bo'lgan global kompetensiyalar tabiiy fanlarni o'rganishda muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin.



1-rasm. Global kompetensiyasi

Tabiiy fanlarni o'rganishdagi ta'lim kompetensiyasi o'zaro bog'liq bilimlar, ko'nikmalar va qobiliyatlarni o'z ichiga oladi, bu esa muhim va samarali faoliyatni rag'batlantiradi. Talabalarda tabiiy-ilmiy kompetensiyasini shakllantirishda tabiiy fanlar tsikli fanlarini integratsiyalash va bilimlarni professional faoliyatda amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Shunday qilib, kelajakdagi

biologiya o'qituvchilarining tabiiy fanlar kompetensiyasini rivojlantirish, innovatsion faoliyatga qodir va zamon talablariga moslashuvchi mutaxassislarni tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Zamonaviy dunyoda ta'lim jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishidagi kalit omil hisoblanadi. Davlatlar ta'lim tizimlarini takomillashtirishga intilmoqda va xalqaro taqqosiy tadqiqotlar (MTT) ushbu jarayonda eng muhim vosita hisoblanadi. Bu tadqiqotlar ta'lim tizimlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga, ilg'or tajriba almashishga va ta'lim siyosatini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

MTT, turli mamlakatlardagi ta'lim holati haqida ob'ektiv ma'lumotlar taqdim etadi, bu esa o'quv jarayonlarini yaxshilash uchun asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Ular, shuningdek, samarali pedagogik amaliyotlarni almashishga yordam beradi va ta'lim tizimlarining shaffofligini oshirib, mamlakatlar o'rtasida raqobatni rag'batlantiradi. Xalqaro tadqiqotlar, masalan, PISA, 2000 yildan boshlab o'tkazilib kelinmoqda, bu esa 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlardagi ko'nikmalarini baholaydi. PISA nafaqat nazariy bilimlarni tahlil qiladi, balki ushbu bilimlarning haqiqiy vaziyatlarda amaliy qo'llanilishini baholaydi. Boshqa muhim tadqiqotlar TIMSS va PIRLS bo'lib, ular ham o'quvchilarning boshlang'ich sinflardagi o'qish ko'nikmalari, shuningdek, matematik va tabiiy fanlar ta'limining sifatini baholashga qaratilgan.

Xalqaro taqqosiy tadqiqotlarda ishtirok etish mamlakatlarga, shu jumladan O'zbekistonga, ta'lim tizimlarini yaxshilash va ta'limda tengsizlikni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim ma'lumotlar olish imkonini beradi. Bunday tadqiqotlarning natijalari ta'lim siyosatini va sifatini oshirishga qaratilgan strategiyalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston ta'lim tizimida tabiiy fanlar kompetensiyasini shakllantirish darajasini baholash asosiy ilmiy konsepsiyalarni bilishni va ularni amaliy qo'llash, tanqidiy fikrlash va ilmiy ma'lumotlar asosida muammolarni hal etishni o'z ichiga oladi. Ilm-fan va texnologiyalar, ayniqsa biologiya, kimyo va fizika sohalarida tez rivojlanayotgan sharoitlarda, ushbu kompetensiyani rivojlantirish ta'lim tizimining kalit elementi bo'ladi.

Tabiiy fanlar kompetensiyasini baholash o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni egallashdagi muvaffaqiyatini aniqlash uchun muhimdir. Baholash jarayoni standartlashtirilgan testlar, nazorat ishlar va laboratoriya tajribalari orqali amalga oshiriladi, bu esa o'quv dasturlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, baholash o'quvchilar, o'qituvchilar va ma'muriyat o'rtasida fikr almashishni rag'batlantiradi, bu esa ta'lim strategiyalarini to'g'rilashga yordam beradi.

Xalqaro kontekstda tabiiy fanlar kompetensiyasini baholash, shuningdek, turli mamlakatlarda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini taqqoslash uchun muhimdir. PISA va TIMSS kabi dasturlar tabiiy fanlar ta'limi holati haqida ma'lumotlar taqdim etadi va eng yaxshi amaliyotlarni aniqlashga yordam beradi.

O'zbekiston ta'lim tizimi tabiiy fanlar kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan, bu esa raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning asosidir. Ta'lim vazirligi tomonidan olib borilayotgan islohotlar xalqaro amaliyotlarni integratsiya

qilish, o'quv dasturlarini yangilash va pedagoglarni malakasini oshirishni o'z ichiga oladi. Tabiiy fanlar kompetensiyasini baholashning asosiy maqsadlari quyidagilardir:

Biologiya sohasidagi erishilgan natijalarni aniqlash.

O'quvchilarning tayyorgarligini kelajakdagi professional talablariga mosligini baholash.

O'qitishda ta'lim ehtiyojlari va muammolarni aniqlash.

O'quvchilarning muvaffaqiyatlarini xalqaro standartlar bilan solishtirish.

O'zbekistonda tabiiy fanlar kompetensiyasini baholash ta'lim siyosatini ishlab chiqish va tuzatishga yordam berishi, ta'lim sifatini yaxshilashi va xalqaro maydonda raqobatlashishga qodir mutaxassislarni tayyorlashda yordam beradi. Xalqaro baholash dasturlarini, masalan, PISA va TIMSS, joriy etish, ta'lim sifatini kuzatish va zamon talablariga moslashtirish uchun muhimdir. O'zbekistonning zamonaviy maktablari turli o'qitish usullarini va ta'lim berishdagi innovatsion yondashuvni qo'llashni talab qiladi, bu esa o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga, jumladan, tanqidiy fikrlash va bilimlarni amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning "Xalqaro baholash dasturlariga muvofiq kelajakdagi biologiya o'qituvchilarida tabiiy-ilmiy kompetensiyani shakllantirish metodikasi" deb nomlangan ikkinchi bobda kelajakdagi biologiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik sifati baholangan, bu kompetensiya yondashuvi talablariga javob beradigan an'anaviy va yangi (innovatsion) nazorat turlari, shakllari va metodlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Fan va texnologiyalarning tez rivojlanishi sharoitida tabiiy-ilmiy kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli moslashish uchun kalit bo'lib qolmoqda. Ushbu kompetensiya ilmiy metodlarni muammolarni hal qilish va asosli qarorlar qabul qilishda qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi, bu esa tanqidiy fikrlashni shakllantirishga va o'zgartirilayotgan ta'lim muhitiga moslashishga yordam beradi. Tabiiy fanlarni o'qitishda xalqaro baholash dasturlariga muvofiq samaradorlikni oshirish va belgilangan maqsadlarga erishishda tabiiy-ilmiy savodxonlikni asosiy kompetensiyalardan biri sifatida oshirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiy-ilmiy kompetensiyani rivojlantirish uchta asosiy komponentni o'z ichiga oladi:

1. Ilmiy kontseptsiyalarni bilish va tushunish: ushbu komponent tabiiy fanlarning asosiy nazariyalarini va prinsiplarini, masalan, biologiya, kimyo va fizikani, o'zlashtirishni o'z ichiga oladi. Muhim jihati nazariy bilimlarni atrofdagi, dunyodagi haqiqiy hodisalar va jarayonlar bilan bog'lash qobiliyatidir.

2. Ilmiy ko'nikmalar va malakalar: tajribalarni o'tkazish, ma'lumotlarni tahlil qilish, ilmiy asbob-uskunalar va metodlardan foydalanish kabi amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalar nazariy bilimlarni amaliyotda samarali qo'llash imkonini beradi.

3. Ilmiy fikrlash va tanqidiy qabul qilish: ilmiy ma'lumotlarni tahlil qilish va talqin qilish, gipotezalar tuzish, xulosalar chiqarish va ilmiy muammolarni hal qilish va asosli qarorlar qabul qilish uchun qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shuningdek, ushbu bobda tadqiqot doirasida kelajakdagi biologiya o'qituvchilarida

tabiiy-ilmiy kompetensiyani shakllantirish metodikasining modeli ishlab chiqilgan (4-rasmga qarang). Ushbu model quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi:

Maqsadli modul

Maqsad: kelajakdagi biologiya o'qituvchilarida xalqaro baholash dasturlari bo'yicha tabiiy-ilmiy kompetensiyani shakllantirish. Ushbu modul xalqaro ta'lim talablariga mos ravishda yuqori sifatli tabiiy fanlarni o'qitish uchun chuqur bilim va ko'nikmalarga ega pedagoglarni tayyorlashga qaratilgan.

Ijtimoiy ehtiyoj: zamonaviy qonunchilik hujjatlari, masalan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, turli qarorlar va konsepsiyalar ta'lim sifatini oshirish va bitiruvchilarni raqobatbardosh qilish zarurligini ta'kidlaydi. Xalqaro standartlarga muvofiq yuqori tabiiy-ilmiy kompetensiyaga ega biologiya o'qituvchilarini tayyorlash muhim ijtimoiy vazifadir, bu ta'lim jarayonini yaxshilaydi va zamonaviy o'zaro bog'langan dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga yordam beradi.

Vazifa: kelajakdagi biologiya o'qituvchilarida tabiiy-ilmiy kompetensiyani shakllantirish metodikasini ishlab chiqish va ularni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlash. Metodika muvaffaqiyatli xalqaro standartlarga erishish uchun zarur bo'lgan asosiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan nazariy va amaliy jihatlarni o'z ichiga olishi kerak.


Metodologik modul

Metodologik yondashuvlar: metodologiyaning asosida kompetensiyaviy, integrativ, loyiha, faol va muammo-yuzasidan yondashuvlar yotadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan, integrativ yondashuv esa turli sohalardan bilimlarni birlashtiradi, loyiha yondashuvi amaliy loyihalarni bajarishni nazarda tutadi, faol yondashuv talabalarning ta'lim jarayoniga jalb etilishiga yordam beradi, muammo-yuzasidan yondashuv esa haqiqiy muammolarni hal qilishga e'tibor qaratadi. Xalqaro standartlar va baholash dasturlari ta'lim natijalarini baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi, faol testlash va o'z-o'zini nazorat qilish esa ta'lim jarayonini muntazam ravishda to'g'rilashga yordam beradi.

Printsiplar: asosiy printsiplar ta'lim amaliyotlarini integratsiya qilish, bilimlarning amaliy yo'naltirilganligi, xalqaro standartlarga moslik, kompetentlik yondashuvi, individualizatsiya qilish va uzluksiz baholashni o'z ichiga oladi. Ushbu printsiplar metodikaning dolzarbligini va moslashuvchanligini ta'minlab, talabalariga o'z ko'nikmalarini va bilimlarini samarali ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

Ta'lim usullari: kreativ fikrlash, mantiqiy tahlil va axborot texnologiyalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Kreativ fikrlash innovatsion g'oyalarni yaratishga yordam beradi, mantiqiy fikrlash bilimlarni strukturaga solish va muammolarni hal qilishda yordam beradi, axborot texnologiyalari esa dolzarb ma'lumotlar va tahlil vositalariga kirishni ta'minlaydi.

Ta'lim shakllari: Interaktiv ma'ruzalar, muammo-yo'naltirilgan ta'lim, amaliy mashg'ulotlar, shuningdek, individual va guruhiy treninglar ishlatiladi. Interaktiv ma'ruzalar talabalarni faol jalb qilishga yordam beradi, muammo-yo'naltirilgan ta'lim muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, amaliy



2-rasm. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tabiiy-ilmiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasining modeli

mashg'ulotlar bilimlarni amalda qo'llash imkonini beradi, treninglar esa individual va jamoaviy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim vositalari:

Darsliklar - asosiy nazariy ma'lumot manbalari bo'lib, talabalarga asosiy tushunchalar va nazariyalarni o'zlashtirishda yordam berdi.

Metodik qo'llanmalar - ish jarayonida faol ravishda quyidagi o'quv qo'llanmalardan foydalanildi: "PISA tizimini biologiya ta'limida qo'llashning ilmiy-metodik asoslari (biologiya o'qitish metodikasi misolida)" nomli o'quv qo'llanma PISA tizimini biologiya o'qitishida qo'llash uchun nazariy va metodik asoslarni taqdim etadi, shuningdek, testlar va vazifalar yaratish bo'yicha misollar va tavsiyalar beradi.

"Biologiya o'qitish metodikasi bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari" deb nomlangan o'quv qo'llanma amaliy vazifalar va laboratoriya ishlarini o'z ichiga oldi, bu esa kelajakdagi biologiya o'qituvchilarga o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llashda yordam beradi.

Testlar - talabalar bilim va ko'nikmalar darajasini tekshirish vositalari bo'lib, ularning o'rganilgan materialni tushunishi va qo'llay olish qobiliyatini baholash imkonini beradi.

So'rovnomalar - ta'lim jarayoni haqida talabalar fikrlarini yig'ish vositalari bo'lib, bu muammoli sohalarni aniqlash va o'qitish metodikasini yaxshilash imkonini beradi.

Baholash mezonlari moduli

Asoslar: baholash quyidagi asoslar bo'yicha o'tkazildi: kognitiv (mavzuni bilish va tushunish), faoliyat (bilimlarni amalda qo'llash), ijodiy (yangiliklarga qobiliyat), refleksiv (o'z harakatlarini tahlil qilish va baholash), tabiiy-ilmiy (tabiiy fanlar sohasidagi bilimlar) va global (aloqalar va kontekstni ko'ra olish qobiliyati).

Darajalar: talabalar bilim va ko'nikmalari uchta darajada baholandi:

Past daraja: Talaba asosiy tushunchalarni bilish va qo'llashni namoyish etadi. Bunda bilim va ko'nikmalar cheklangan bo'lib, har doim belgilangan talabalar bilan mos kelmasligi mumkin.

O'rta daraja: talaba konseptlarni ishonch bilan qo'llaydi, murakkabroq vazifalarni bajaradi va yaxshi tushunish darajasini ko'rsatdi.

Yuqori daraja: talaba chuqur tushunishga, murakkab bilim va ko'nikmalarni qo'llashga, mustaqil va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'ladi, yuqori kompetensiya darajasini namoyish etadi va standart bo'lmagan vazifalarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'ladi.


Natijadorlik moduli

Natija: bo'lajak biologiya o'qituvchisi tabiiy ilmiy kompetensiyaga va kreativ yondashuvga ega bo'lib, mustaqil ravishda xulosalar chiqaradi, oddiy bo'lmagan vaziyatlarda qarorlar qabul qiladi va tabiiy hodisalarni ilmiy nuqtai nazardan samarali talqin qiladi. Bu uning ta'lim sohasida va ilmiy amaliyotda xalqaro standartlarga muvofiq muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda biologiya o'qituvchilarini xalqaro ta'lim sifat standartlariga muvofiq topshiriqlar, imtihon ishlari va baholash materiallarini yaratishga tayyorlash muhimdir. Biroq, bunday topshiriqlarni ishlab chiqish katta sa'y-

harakatlarni va chuqur bilimlarni talab qiladi, va har bir oliy o'quv yurtini bitiruvchi bu vazifani bajarishi mumkin emas. Bu faqat kelajakdagi o'qituvchida keng ilmiy va madaniy doira bilan birga metodologik kompetensiyalar mavjud bo'lishi mumkin. Chunki ta'lim sifatini xalqaro tadqiqotlari formatida vazifalarni ishlab chiqish, ularning maqsadlari va xususiyatlarini tushunmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. (5-rasmga qarang).

O'tkazilgan tahlil, mavjud yondashuvlar asosida bakalavriat ta'limining (biologiya profili) maxsus tayyorgarlikni tashkil etishda kelajakdagi bitiruvchilarning professional faoliyati xususiyatlarini yetarlicha hisobga olmayotganligi aniqlandi.



3-rasm. PISA formatidagi tabiiy ilmiy kompetensiya bo'yicha topshiriq

Maxsus tayyorgarlikda qo'shilgan ta'lim modullarining tuzilishi va mazmuni asosan biologiya fanlari sohasidagi bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, biologiya darslarini o'tkazish bo'yicha metodik ko'nikmalarni rivojlantirish va tabiiy ilmiy kompetensiyalarni qo'llash tajribasini hisobga olmaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Pedagogik tajriba ishlarini tayyorlash va natijalari**" deb nomlangan bo'lib, bunda xalqaro ta'lim standartlariga muvofiq biologiya o'qituvchilarining tabiiy ilmiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodikani yaratish va sinovdan o'tkazish haqidagi ma'lumotlar ilmiy asoslab berilgan.

Tajriba-sinov ishlari 2019-2023 yillar davomida Namangan davlat universiteti (135 talaba ishtirokida), Jizzax davlat pedagogika universiteti (134 talaba ishtirokida) va Chirchiq davlat pedagogika universitetida (139 talaba ishtirokida) olib borildi. Tajriba-sinov ishlari to'rtta asosiy bosqichda o'tkazildi:

Tayyorlov bosqichi (2019-2020 yillar): Ushbu bosqichda izlash didaktik tajribasi o'tkazildi. Ilmiy-metodik adabiyotlar bo'yicha va talabalar orasida o'z-o'zini ta'lim olish ko'nikmalari hamda asosiy tabiiy ilmiy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha nazariy tahlil o'tkazildi. Empirik materiallar to'plandi, muammolar, mavzular, maqsadlar va tadqiqot vazifalari aniqlanidi. Ilmiy asoslar ishlab chiqildi, shu jumladan talabalarni o'z-o'zini ta'lim olishga jalb qilishda ilg'or pedagogik tajribalar va innovatorlar o'rganildi. Boshlang'ich bosqichda quyidagi vazifalar bajarildi:

1. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tabiiy ilmiy kompetensiyasini rivojlantirish, tabiiy hodisalarni ilmiy talqin qilish qobiliyati, shuningdek, matematik, funksional kompetensiyalar va kreativ fikrlash muammolarini ochib berish. Buning uchun ilmiy tadqiqotlar o'tkazildi, ilmiy adabiyotlar o'rganildi, shuningdek, pedagogik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlar tahlil qilindi.

2. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining zamonaviy biologik ta'lim jarayonida tabiiy hodisalarni talqin qilish qobiliyatini baholash.

Tadqiqot ma'lumotlarini aniqlash bosqichida quyidagi imkoniyatlar aniqlangan:

1. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tabiiy ilmiy kompetensiyasini xalqaro baholash dasturlari asosida takomillashtirish bo'yicha asosiy prinsiplari va ustuvor vazifalarni shakllantirish.

2. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tabiiy ilmiy kompetensiyasining mazmuni va struktural tarkibini xalqaro baholash dasturlari asosida ishlab chiqish.

3. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tabiiy ilmiy kompetensiyasini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish uchun nazariy model yaratish va ushbu asosda ularning tabiiy ilmiy savodxonligini oshirish metodikasini ishlab chiqish.

4. Yakuniy tadqiqotning ilmiy metodlarini tavsiflash va ishchi taxminlarni shakllantirish.

5. Avvalgi belgilangan versiyaga muvofiq pedagogik tajriba o'tkazish metodikasini ishlab chiqish.

Amaliy tatbiq etish bosqichi (2020-2021 yillar): ushbu bosqichda amaliy pedagogik tajriba o'tkazildi. Bo'lajak biologiya o'qituvchilari o'z bilim va metodikalarini qo'llagan holda o'quv jarayonida faol ishtirok etdilar, o'z-o'zini ta'lim olish va tabiiy ilmiy kompetensiyani rivojlantirish ko'nikmalarini oshirdilar.

Natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish bosqichi (2021-2022 yillar): tatbiq etilgan metodikalar va yondashuvlarning samaradorligini baholash va talabalar tomonidan o'z-o'zini ta'lim olish ko'nikmalari va tabiiy ilmiy kompetensiyani rivojlantirishdagi natijalarni erishishga qaratilgan.

Yakuniy bosqich (2022-2023 yillar): Tadqiqot natijalariga asoslangan yakuniy xulosalar va tavsiyalarni shakllantirishni o'z ichiga oldi. Shu bilan birga, bajarilgan ishlar haqida hisoboti tayyorlash va ilmiy natijalarni jamoatchilik va ilmiy hamjamiyatga e'lon qilish ham ushbu bosqichga kirdi.

